

**MUHITNING PSIXOLOGIK OMILLARI VA BAXTSIZ
HODISALARNING ASOSIY PSIXOLOGIK SABABLARI**

Eshmuhamedov Latif Maxmayusufovich

Karshi Institute of Engineering and Economics

Assistant of the "Labor safety and technology" department

Shomamedov Shuhrat Farxodovich

4th grade student of the "Labor protection and technical safety"

department of the Karshi Institute of Engineering and Economics

Karshi Engineering and Economics Institute, 180100.

Mustakillik Street-225, Karshi, Uzbekistan.

E-mail: latifbek95@gmail.ru Tel: +998908787500

Annotatsiya: Baxtsiz hodisalarning asosiy psixologik sabablari, Xavfsizlik psixologiyasi - insonning mehnat va boshqa turdagi faoliyati davrida yuzaga keladigan baxtsiz hodisalarning psixologik sabablarini o‘rganish asosida faoliyat xavfsizligini oshirish usullari va usullarini ishlab chiquvchi psixologik bilim sohasi hisoblanadi.

Xavfsizlik psixologiyasining ob’ekti sifatida xavf bilan bog‘liq bo‘lgan turli xil ko‘rinishdagi inson faoliyati qabul qilinadi.

Tayanch so‘z va iboralar: Baxtsiz xodisa, xavfsizlik, faoliyat, kasallik, charchoq, xarakter jixatlari.

KIRISH. Bugungi kunda shiddat bilan rivojlanayotgan davrimiz, insonni mustaqil fikirlash shaxs sifatida har bir soniyada o‘ylashga, fikirlashga, mulohaza yuritib, o‘zi uchun xulosalar chiqarishiga majbur etmoqda.

Zero, mustaqil davlatimizning siyosati inson manfaatini himoya qilish, uning uchun munosib turmush tarzini yaratish ekan, bu ishlarni amalga oshirish uchun bo‘lg‘usi mutaxassis samarali mehnat jarayonlarini amalga oshirishlarini taqozo etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyov mamlakatimizni 2026-yilda ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma‘ruzasida bugungi kunda psixologlar tayyorlash muomolariga ham jiddiy e‘tibor qaratib “Oldimizda yoshlarga tarbiya berish, oisixologiya va boshqa turli sohalarda kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash bo‘yicha murakkab vazifalar turibdi” deb alohida takidlab o‘tganlar.

Shu boisdan Sanoat korxonalarini bo‘ladimi no ishlab chiqarish jarayonlari bo‘ladimi baxtsiz hodisalarning oldini olish va korxonaning barqaror ishlash tamoillariga asoslangan holda yondoshi zarurligini bildiradi. Baxtsiz xodisa va

kongilsiz hodisalarning kata qismini ishchi xodimlarning beetiborligi va psixologiyasi bilan bog'liq xollari rial hayotimizda ko'rinib qolayapti.

Asosiy qisim: Xavfsizlik psixologiyasining tadqiqot predmetiga esa quyidagilarni kiritish mumkin:

- faoliyat davrida yuzaga keluvchi va xavfsizlikka ta'sir qiluvchi ruhiy jarayonlar
- faoliyat xavfsizligiga ta'sir etuvchi insonning ruhiy holati;
- faoliyat xavfsizligiga ta'sir etuvchi insonning ruhiy xususiyatlari.

Insonning shaxsiy xususiyatlari uning xarakteri («temperament-mijoz») bilan belgilanadi va asosan quyidagi turlarga bo'linadi:

- xolerik – ruhiy va intellektual faol, qiziqqon, yengil tabiatli;
- sangvinik - ruhiy va intellektual faol, bosiq, vazmin lekin,
- xushchaqchaq.tabiatli;
- flegmatik - ruhiy va intellektual sust, bo'shang, og'ir tabiatli;
- melanxolik - ruhiy va intellektual sust, g'amgin, og'ir tabiatli.

Inson xarakterini baholashda yuqoridagi xarakterlar oralig'idagilari ham bor va ularni barchasi kadrlar tanlashda muhim rol o'ynaydi.

Insonning xarakteriga bog'liq holda o'z faoliyatini xavfsiz olib borishi asosan quyidagi sabablar bilan izohlanadi:

• inson o'z manfaatlarini qondirish maqsadida mehnat qurollari takomillashdi, zamonaviy texnik tizimlar ishlab chiqildi va shunga bog'liq holda xavflarning yangi turlari hosil bo'ldi. Insonning jismoniy va ruhiy imkoniyatlari tashqi xavf darajasini o'sish sur'atiga nisbatan sekin rivojlanadi, ya'ni texnika va texnologiyani rivojlanishi bilan insonning xavfga qarshiligi xavf darajasiga nisbatan orqada qoladi;

• o'ta xavfli, xavfli yoki zararli ish sharoitlarida insonni xavfsizlik talablariga rioya etmaslik, xato qilish ehtimoli ortadi;

• insonni xavflarga asta-sekin ko'nikib, moslashib borishi natijasida baxtsiz hodisalarni orta boradi. Masalan, inson vaqtdan yutish maqsadida ish vaqtida ayrim xavflarni nazardan chetda qoldiradi, lekin hamma vaqt ham baxtsiz hodisalar ruy bermaydi, “Ko'za har kuni emas, kunida sinadi” maqoli e'tiborga olinmaydi.

• barcha xavflar ham baxtsiz hodisalarni keltirib chiqarmaydi degan tushunchalarni hosil bo'lishi, ishda ko'z bo'yamachilik va aldashlarga yo'l qo'yilishi. Xavfsizlik qoidalariga rioya etmaslik ayrim vaqtlari mumkin va bu xavfsiz, hech qanday oqibatlarga olib kelmaydi degan hissiyotlarni paydo bo'lishi;

• texnika va texnologiyalarning takomillashishi natijasida xavfsizlik talablarini mustaqil o'zlashtirish darajasini, o'z ustida ishlash sur'atini pasayishi;

• xavfsizlik qoidalari va talablarini bajarib bo'lmaydigan darajada qattiq qo'yilishi;

•ish unumdorligi va xavfsizlik o‘rtasidagi qarama qarshilik, ya’ni xavfsizlik qoidalari va talablarini to‘liq bajarilishini ta’minlash ish unumdorligini oshishiga ma’lum darajada to‘sqinlik qilishi.

Ishchi ishlab chiqarish rejasini bajarmasa uning ish haqi kamayadi, xavfsizlik qoidalarini to‘liq bajarmasa uning ish haqida hech qanday o‘zgarish bo‘lmaydi, ya’ni kamaymaydi. Shu sababli ishchi o‘z faoliyati davomida quyidagi kamchiliklari orqali baxtsiz hodisalarga olib keluvchi xatoliklarga yo‘l qo‘yadi:

- charchash (toliqish);
- kasallik;
- ma’lumoti va kasbiy malakasini kamligi;
- mehnat jamoasida ma’naviy muhitning yomonligi;
- qoniqarsiz mehnat sharoiti;
- ishchining material va boshqa shaxsiy manfaatlari;
- ishchining shaxsiy psixologik xarakterini ishlab chiqarish faoliyati
- talablariga to‘g‘ri kelmasligi;
- hayajonlanish;
- jarohatlanish yoki xavfli holatlar yuz bergandan keyin ishchining ekstremal
- sharoitlarda kasbiy qobiliyatini pasayishi;
- alkogol, narkotik va boshqa shu kabi dorilarni iste’mol qilish;
- ob-havo o‘zgarishini ta’siri.

Mavzuning asoslanishi: Baxtsiz hodisalarning asosiy psixologik sabablari

Bir xil sharoitda va bir xil topshiriqni bajarishda ishchilarning quyidagi shaxsiy xarakterlariga bog‘liq holda turli xil holatlar yuz berishi mumkin:

- asab tizimi holati;
- xarakteri yoki temperamenti (mijozi);
- miya faoliyatini xususiyati, tafakkurlash va fikrlash qobiliyati;
- tarbiyasi va ma’lumoti;
- sog‘ligi;
- ish tajribasi.

Insonning ushbu xarakterlari xavfsizlik qoidalarini ongli ravishda buzishning quyidagi psixologik sabablarini keltirib chiqaradi:

- ★ jismoniy kuch va vaqtni tejash - o‘zining shaxsiy manfaati uchun ish sur’atini oshirish maqsadida mahsulotning sifatiga ta’sir etmaydigan ayrim jarayonlarni bajarmaslikka harakat qilishi natijasida xavf darajasini ortishi;
- ★ xavf sodir bo‘lishiga ko‘nikib qolish yoki xavf darajasini to‘g‘ri baholay bilmaslik;

- ★ doimiy qoidabuzarlikka o‘rganib qolish, yoki “menga baribir”- degan tushunchada yurish;
- ★ jamoadagi guruhiy tartib buzarlklarni o‘ziga singdira borish, “hamma qilayapdiku!” - degan fikrga borish;
- ★ ishda xatoliklarga yo‘l qo‘yilish ko‘nikmasi-asosan mutaxassisligi o‘z ishiga mos kelmaydigan ishchi-xodimlarda kuzatiladi;
- ★ o‘zining ish tajribasi va malakasiga ortiqcha baho berish;
- ★ o‘z qobiliyati va kuchiga ishonmagan holda xatoliklarga yo‘l qo‘yish;
- ★ hayajonga berilish;
- ★ tavakkalchilikga moyillik;
- ★ vaziyatga bog‘liq hoda tavakkalga yo‘l qo‘yish., ishga bog‘liq holda hech qanday manfaat, rag‘batlarni kutmagan holda tavakkal qilish.

Xulosa: Sanoat karxonalari, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarning ko‘pchiligi mashinalardagi muhandislik-konstruktorlik nuqsonlar yoki texnik-texnologik sabablar orqali emas, balki tashkiliy-psixologik sabablar ta’sirida ruy beradi. Shu sababli, ayrim hollarda baxtsiz hodisalarning 60-70 foiziga bevosita jarohatlanuvchilarning o‘zlari aybdor bo‘ladi.

ADABIYOTLAR:

1. Психология. Энциклопедия. (Электрон манба). URL: <https://medlife.uz/encyclopedia/p/psixologiya/>
2. Rakhimov O.D., Ashurova L. Types of modern lectures in higher education, technology of their design and organization.//Проблемы современной науки и образования. 2020. №12(157), часть -1. С.41-46. DOI: 10.24411/2304-2338-2020-11203/
3. Raximov O.D. Requirements and technology for creating e-learning resources //Sovremennoe obrazovane (Uzbekistan). 2016. T. 202. – С. 45-50.
4. Рахимов О.Д. Электрон таълим ресурсларини яратиш талаблари ва технологияси //Современное образование (Узбекистан). 2016. №. 2. – С. 45-50.
5. Рахимов О.Д. Инновацион педагогик технологиялар: лойихалар услуги таълим сифатини оширувчи технология сифатида //Қарши, ТАТУ Қарши филиали. – 2013. – Т. 80.
6. Латиф Махмаюсуфович Эшмухамедов. **СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ ГОСУДАРСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ В ОБЛАСТИ ПРЕДУПРЕЖДЕНИЯ И ЛИКВИДАЦИИ ЧРЕЗВЫЧАЙНЫХ СИТУАЦИЙ** Вестник науки и образования 2022.
7. Eshmukhamedov Latif Maxmayusufovich. **PRIMARY CONCEPTS ABOUT EARTHQUAKES AND THEM ENSURING THE SAFETY OF THE PUBLIC WHEN IT HAPPENS.** International journal of advanced research in education, technology and management 2023/10/27.

8. Сирожиддин Мурадов. **ПРОБЛЕМЫ ТУШЕНИЯ ПОЖАРОВ КЛАССА Е ЛИЧНЫМ СОСТАВОМ ПОЖАРНОЙ ОХРАНЫ В МИРЕ.** International journal of advanced research in education, technology and management. 2023/5/25.
9. Muradov S. **ANALYSIS OF “MEASURES TO ENSURE OCCUPATIONAL SAFETY IN THE FIELD OF CARGO TRANSPORTATION AND LOADING.”** International journal of advanced research in education, technology and management. 2023/9/29. [bet 127-132]
10. Мурадов С. Ражабов Х. Ф. **ИЗУЧЕНИЯ УСЛОВИЯ ТРУДА В КОМПАНИИ ЕВРОПЫ.** International journal of advanced research in education, technology and management. Vol. 2 No. 10 (2023) 2023-10-06.
11. MURADOV SIROJIDDIN HUSAN O‘G‘LI, ESHPO‘LATOV AZIZBEK ADHAM O‘G‘LI **PHYSIOLOGICAL AND HYGIENE BASIS OF HUMAN LABOR ACTIVITY.** International journal of advanced research in education, technology and management. Vol. 2. 2023-11.